

60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili va 60510100-Biologiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim uchun imtihon natijalariga ko‘ra talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar uchun oshirilgan (tabaqalashtirilgan) to‘lov kontrakt qiymatining miqdorlari belgilandi.

Universitet Kengashining qaroriga asosan 2024-2025 o‘quv yili qabulida **60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili va 60510100-Biologiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlarida** ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim bo‘yicha test imtihonlarini topshirgan abituriyentlarning to‘plagan ballari asosiy qabul chegaralariga yetmagan, qo‘shimcha ravishda o‘qish istagini bildirib, ariza bilan 2024-yil 1-noyabrga qadar murojaat qilgan abituriyentlardan ballar ketma-ketligiga qat’iy rioya qilingan holda birinchi o‘quv yilida oshirilgan (tabaqalashtirilgan) to‘lov-kontrakt miqdorlari 2024-2025 o‘quv yili uchun amalda o‘rnatilgan to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilandi:

to‘plagan ballari qabul kvotalari (parametrlari) chegarasiga bir ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — 1,5 barobar;

1,1 balldan 2,0 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,0 barobar;

2,1 balldan 3,0 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,5 barobar;

3,1 balldan 4,0 ballgacha yetmaganlar uchun — 3,0 barobar.

4,1 ball va undan ko‘p ball yetmaganlar uchun — 4,0 barobar.

ESLATMA! Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda ushbu miqdorlar bo‘yicha to‘lov-kontrakt shartlari birinchi o‘quv yili uchun **50 foizi bajarilgandan so‘ng** abituriyent o‘qishga qabul qilinadi. To‘lov-kontrakt shartnomalarini rasmiylashtirish bo‘yicha ma’lumotlar qo‘shimcha e’lon qilinadi.